

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.K/T.07.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI

SAIDOVA XURSHIDA AZIMOVNA

**ASALARI PROPOLISINING KIMYOVIY TADQIQI VA ULAR ASOSIDA
OLINGAN TOVARLARNI SINFLASH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Saidova Xurshida Azimovna

Asalari propolisining kimyoviy tadqiqi va ular asosida olingan
tovarlarni sinflash..... 3

Саидова Хуршида Азимовна

Химическое исследование пчелиного прополиса и классификации
продуктов на его основе..... 21

Saidova Khurshida Azimovna

Chemical study of bee propolis and classification of products based on
it 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.K/T.07.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI

SAIDOVA XURSHIDA AZIMOVNA

**ASALARI PROPOLISINING KIMYOVIY TADQIQI VA ULAR ASOSIDA OLINGAN
TOVARLARNI SINFLASH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

02.00.09 – Tovarlar kimyosi

**KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/K1044 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Bioorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.adu.uz) va «Ziynet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Islomov Akmal Xushvaqovich
kimyo fanlari doktori, professor
Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xojimatov Maxsadbek Muydinovich
kimyo fanlari doktori, professor
Mo'ydinov Nurillo To'xtarovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K/T.07.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «05» 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877)223 88 30, faks:(99874) 223 84 33.

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№42 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: (99874) 223 88 30, faks: (99874) 223 84 33) e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «29» 07 da tarqatildi.
(2026 yil «29» 07 dagi 18 raqamli reestr bayonnomasi)




Sh.M. Kirgizov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M. Mo'minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent


M.M. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida inson organizm uchun foydali bo'lgan, tabiiy va bezarar oziq-ovqat qo'shimchalarini ishlab chiqish hamda ularning foydali xususiyatlarini baholash dolzarb ilmiy-amaliy muommolardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, turli vegetasion davrlardagi dorivor o'simlik qismlari asosida sintetik dori vositalariga yordamchi bo'la oladigan, tarkibidagi vitaminlar, flavonoidalar kabi biologik faol birikmalar, makro- va mikro elementlar saqlagan, tabiiy, zararsiz va ekologik toza hamda yallig'lanish kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega oziq-ovqat qo'shimchalarini yaratish va ularni xalq tabobatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda asalari propolisi asosida tayyorlangan tabiiy biologik faol qo'shimchalar (BFQ) olish hamda sifatini yaxshilash, ularning kimyoviy tarkibini va biologik faolligini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Propolisning kimyoviy va biologik xossalarini chuqur o'rganish orqali tayyorlanadigan moyli ekstraktlar xalq salomatligini saqlashda keng ko'lamli qo'llanilishi mumkin bo'lgan tabiiy preparatlar ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, bu tadqiqot natijalari innovatsion farmatsevtika mahsulotlarini yaratishda, kichik tadbirkorlik subyektlari va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun amaliy yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Bu jihatlar bilan mazkur ilmiy ish biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash hamda ularga TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya va ekologik vaziyatni yaxshilash, shuningdek, mahalliy xomashyo resurslari asosida import o'rnini bosuvchi milliy mahsulotlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgandi. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Carnica asalari propolis va kungaboqar moyi asosida tarkibida teri yarasi yallig'lanishga qarshi faollikga va antioksidantlik xususiyatiga ega birikmalar saqlagan, organizm uchun zararsiz, tabiiy biologik faol qo'shimcha oziq-ovqat qo'shimchalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzulishi, xossalarini o'rganish hamda uyg'unlashgan tizim qoidalari bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 10 apreldagi PF-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018 yil 12 oktabrdagi PQ-3968-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda shu sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda keltirilgan topshiriqlarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasini rivojlantirishning VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda propolisning kimyoviy tarkibi flora turlari, yil fasli hamda yig'ilish usuliga qarab o'zgaruvchan bo'lib, uning asosiy komponentlari hisoblangan flavonoidlar, efir moylari, vitaminlar va minerallar bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Bolgariyalik olimlar V. Bankova, V. Popova, A. Kujumgiev va Braziliyalik S. Marcucci, Polshalik A. Malm, P. Okińczyc, Germaniyalik E. Wollenweber, Misrlik A. G. Hegazi: O'zbekistonda akademiklar O. S. Sodiqov, S. Yu. Yunusov, Yo. X. To'raqulov, S. T. Soatov, A. P. Ibroximov, Sh. I. Salixov, A. S. Turayev va I. R. Asqarov va boshqalar tomonidan propolis tarkibi, biologik ahamiyati hamda tibbiyotda virusga qarshi va antibiotik ta'siri tufayli shamollash va gripp kasalliklarida qo'llanilishi B. A. Qahramonov, M. I. Bosimova, G. M. Erdanova, M. A. Mamasharipova, Sh. A. Rustamova va J. O'. O'ralova tomonidan ko'plab samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va hozirgi kunda ham muvofaqqiyatli davom ettirilmoqda. Asalari propolisi bilan antibakterial, dezinfektsiyalovchi va oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Hozirgi kunda asalari propolisining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari o'rganilganligiga qaramasdan, O'zbekiston hududida *Carnica* asalari propolisi asosida biologik faol qo'shimchalar olinmagan, antioksidantlik xususiyati hamda teri yarasi yallig'lanishga ta'siri o'rganilmagan, shuningdek, o'tkir zaharliligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishida *Carnica* asalari propolisining moyli ekstrakti asosida yangi biofaol qo'shimchalar ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini va o'tkir zaharliligini aniqlash, antioksidantlik xususiyati va teri yarasi yallig'lanishga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq muammolarni hal etishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassalarining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zRFA Bioorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Carnica asalari propolisining kimyoviy tadqiqi va ular asosida olingan tovarlarni sinflash" mavzusi ilmiy tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Carnica* asalari propolisi tarkibini kimyoviy qiyosiy o'rganish va apigenin, kaempferol bilan GKMAT ni suvda eruvchan kompleks birikmalarini olish hamda moyli oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqish, uni TIFTN bo'yicha sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Carnica asalari propolisi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar, mineral elementlari, og'ir metallar Pb, Cd, Hg, As miqdorlarini hamda flavonoidlar, aminokislotalarini aniqlash;

Carnica asalari propolisi asosida moyli oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqish va tarkibidagi yog' kislotasi sonini, mineral elementlarini, flavonoidlar miqdorini, o'tkir zaharliligini, *in vitro* sharoitida antioksidantlik xususiyatini, teri yarasi yallig'lanishiga qarshi biologik faolliklarini aniqlash;

Carnica asalari propolisi bilan GKMAT ning 1:2 nisbatdagi suvda eruvchan kompozitsion birikmalarini olish va tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar, aminokislotalar, og'ir metallar Pb, Cd, Hg, As miqdorlarini hamda *in vitro* sharoitidagi antioksidantligini, o'tkir zaharliligini aniqlash;

Carnica asalari propolisi tarkibida uchraydigan apigenin, kaempferol bilan GKMAT ning (1:2 1:4, 1:9) mol nisbatdagi suvda eruvchan kompleks birikmalarini olish va izomolyarligini, IQ, Mass spektrini o'rganish hamda PASS Online dasturi yordamida komplekslarning biofaolligini nazariy jihatdan baholash, *in vitro* sharoitda antioksidantlik xususiyatlarini, biologik faolliklarini aniqlash;

Carnica asalari propolisi asosida olingan moyli oziq-ovqat qo'shilmasini ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur normativ texnik hujjatlari ishlab chiqish;

Carnica asalari propolisi ekstrakti asosida olingan yangi tovardan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kodini sinflash va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti sifatida *Carnica* asalari propolisi asosida tayyorlangan moyli ekstrakt va *Carnica* asalari propolis tarkibida uchraydigan flavonoidlar apigenin, kaempferol bilan GKMAT ning kompleks birikmalari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Carnica* asalari propolisi asosida moyli ekstraktni tayyor mahsulot sifatida ishlab chiqarish, propolis tarkibida uchraydigan flavonoidlar apigenin, kaempferol bilan GKMAT ni har xil nisbatlarda kompleks birikmalarini olish, ularning kimyoviy tarkibi asosida sinflash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiya ishida bajarishda an'anaviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan qog'oz va yupqa qatlamli xromatografiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, induktiv bog'langan plazma optik emissiya spektrometriyasi (ICP-OES), IQ-spektroskopiya, suyuqlik xromatografiyasi mass-spektrometriya va PASS Online dasturi yordamidagi usullari, hamda birikmalarning biologik faolliklarini o'rganishda spektrofotometrik usuldan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Carnica asalari propolisi tarkibidagi 59 ta elementlar miqdori «Induktiv bog'langan argon plazmali Optik emission spektrometriyada aniqlanib, K, P, Mg, Ca, Na, Fe, Mn, Zn, kabi hayotiy zarur elementlarni yuqori miqdorda saqlashi hamda Pb, <0,10 mg/g, Cd, 0,012 mg/g, As, <0,10 mg/g va Hg, <0,001 mg/g kabi og'ir metall ionlarining miqdori xalqaro oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi gigiyenik normalari me'yoriga mos kelishi isbotlangan;

Carnica asalari propolisi tarkibidagi vitaminlarni C>B₂>B₆ kamayib borish tartibida va apigenin, lyuteolin, rutin, formononetin, kaempferol flavonoidlar hamda

aminokislotalar glutamin, tirozin, sistein va prolinning miqdori nisbatan yuqori ekanligi YuSSX usulida aniqlangan;

Carnica asalari propolisini kungaboqar moyi asosida ekstraksiya qilib “PROPOLIS OIL” nomli moyli oziq-ovqat qo‘shilmasi olindi va uning tarkibidagi yog‘ kislotalari omega-9 (olein), omega-6 (linoleik), omega-3 (α -linolen) hamda araxin kislotalari, mineral elementlar Na, Mg, Al, Si, P, S, Cl, K, Ca va Fe, flavonoidlar rutin, kversitin, apigenin, kaempferollar mavjudligi hamda *in vitro* sharoitida antioksdantlik xususiyatiga egaligi, V-guruh “zaharsiz birikmalar” sinfiga tegishli ekanligi, teri yarasi yallig‘lanishga qarshi biologik faollikni namoyon etishi aniqlangan;

Carnica asalari propolisi bilan GKMAT ni 1:2 nisbatdagi suvda eruvchi kompozitsiyasi olinib, tarkibidagi mineral elementlar, va apigenin, lyuteolin, rutin, kaempferol kabi flavonoidlar mavjudligi hamda aminokislotalar glutamin, tirozin, sistein, prolinning miqdori nisbatan yuqori ekanligi va vitaminlar C>B₂>B₆ tartibida kamayib borishi, YuSSX usulida aniqlandi hamda *in vitro* sharoitida antioksidantlik xususiyatiga egaligi va V-guruh “zaharsiz birikmalar” sinfiga tegishli ekanligi, gepatoprotektorlik ta’siri, yallig‘lanishga qarshi biologik faolligi isbotlangan;

Carnica asalari propolisi tarkibida uchraydigan flavonoidlar apigenin, kaempferollar bilan GKMAT ni 1:2, 1:4, 1:9 (mol) nisbatdagi suvda eruvchan kompleks birikmalari olingan va izomolyarligi, IQ, Mass spektri o‘rganilgan hamda PASS ONLINE dasturi yordamida biofaolligi, *in vitro* sharoitida antioksidantlik xususiyatini namoyon etishi isbotlangan;

Carnica asalari propolisini kungaboqar moyi asosida olingan tabiiy “PROPOLIS OIL” oziq-ovqat qo‘shilmasini uyg‘unlashgan tizim qoidalariga binon sinflanib, ular uchun TIF TN bo‘yicha xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Carnica asalari propolisi tarkibidagi mineral elementlar, suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar miqdori va V-guruh “zaharsiz birikmalar” sinfiga kirishi aniqlangan hamda yallig‘lanishga qarshi faollik namoyon etishi, antioksidantlik xususiyatiga ega ekanligi isbotlangan;

Carnica asalari propolisini kungaboqar moyi asosida antioksidant xususiyatiga va yallig‘lanishga qarshi biologik faollikga ega ekologik toza, tabiiy “PROPOLIS OIL” nomli oziq-ovqat qo‘shilmasi moyi olingan hamda TIN TN bo‘yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari- IQ, Mass spektroskopiya, YuSSX xromatografik, gaz suyuqlik xromatografiyasi, - induktiv bog‘langan plazmali optik emission spektrometriya usullarida kimyoviy tarkibi aniqlanganligi va biologik faolliklari baholanganligi, olingan tadqiqot natijalarning ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Carnica* asalari propolisi va kungaboqar moyi asosida olingan “PROPOLIS OIL” oziq-ovqat qo‘shilmasini tarkibidagi flavonoidlarni miqdorini YuSSX usulida, yog‘ kislotalar tarkibi gaz suyuqlik xromatografiya usulida, makro va mikroelementlar XRF (rentgen-fluoresans) tahlilida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Carnica* asalari propolisi va kungaboqar moyi asosida teri yarasi yallig'lanishi va antioksidantlik xususiyatiga ega tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratilganligi, ularni shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmasi sifatida xalq tabobati amaliyotida hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Teri yarasi yallig'lanishga qarshi faollikga va antioksidantlik xususiyatiga ega oziq-ovqat qo'shilmasi olish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

Carnica asalari propolisi va kungaboqar moyi asosida "PROPOLIS OIL" nomli yangi oziq-ovqat qo'shilmali BFQ uchun TY 28624239-03:2025 raqamli Texnologik yo'riqnoma tuzilib, O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazoratining 2025-yil 03-oktyabrdagi 01-28/8837 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada teri yarasi yallig'lanishga qarshi faollikga va antioksidantlik xususiyatiga ega bo'lgan mazkur oziq-ovqat qo'shilmasini ishlab chiqarish imkonini bergan;

Carnica asalari propolisi va kungaboqar moyi asosida ishlab chiqilgan "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi tovar sifatida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasiga ko'ra quyidagicha: *Carnica* asalari propolisi va kungaboqar moyi asosida tayyorlangan, tarkibida flavonoidlari gall kislota, rutin, kvertsetin, apigenin, kaempferol, yog' kislotalari linoleik kislota, Olein kislotalari, palmitolein, Omega-3, makroelementlar Na, K, Ca, Mg, P, mikroelementlar Fe, Cu, Zn, Mn, Sr, Ba kabi tabiiy birikmalar saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari, dori vositasi emas" uchun - 1522 00 990 1 xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilib, davlat bojxona qo'mitasi tomonidan amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2026 yil 25-may 29/05-26-0056 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada, teri yarasi yallig'lanishga qarshi faollikga va antioksidantlik xususiyatiga ega oziq-ovqat qo'shilmalarini sinflash, eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to'lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya bo'yicha maqolalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Web of Sciene ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarida va Scopus bazasidagi jurnalida 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston


Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Asalari propolisi yig‘ib olish usulini optimal sharoitlarini aniqlash va ularning kimyoviy tarkibini tahlil qilish hamda tovar kimyosi fanining paydo bo‘lishi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan **birinchi bobida** asalari va undan olingan mahsulotlar haqida ma’lumot, asalari propolisining kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari to‘g‘risida umumiy tushunchalar hamda ularning kimyoviy tarkibi, asosiy ta’sir etuvchi biologik faol moddalari va shifobaxsh o‘simliklar bilan davolash usuli (fitoterapiya), propolisning antioksidantlik xususiyatlari va propolis tarkibidagi mineral elementlar, vitaminlar, uglevodlar, aminokislotalarning ahamiyati, haqida ma’lumotlar va birinchi bob uchun xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Carnica* asalari tomonidan olingan propolisning tarkibidagi mineral elementlar, flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar miqdorini aniqlash hamda propolisni moyli ekstraktlarini va komplekslarini olish, kimyoviy tarkibini o‘rganish, (olingan natijalar va ularning tahlili)”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** *Carnica* asalari propolisi tarkibidagi mineral elementlar, aminokislotalar, flavonoidlar va vitaminlar miqdori aniqlangan. *Carnica* asalari propolisini kungaboqar moyi asosida moyli ekstraktini “PROPOLIS OIL” oziq-ovqat qo‘shilmasi moyi olingan va uning tarkibidagi yog‘ kislotalari, mineral elementlari, flavonoidlari aniqlangan. *Carnica* asalari propolisi bilan GKMAT ni 1:2 suvda eruvchi kompozitsiya birikmasi olinib, izomolyarligi, IQ, Mass spektri o‘rganilgan va tarkibidagi makro va mikro elementlar, vitaminlar, aminokislotalar, hamda flavonoidlarin miqdorini aniqlash haqidagi ma’lumotlar yoritilgan va ikkinchi bob xulosasi keltirilgan.

Carnica asalari propolisi tarkibidagi mineral elementlar miqdorini induktiv bog‘langan plazma optik emissiya spektrometriyasi (ICP-OES) qurilmasida tekshirilganda 59 ta elementlar miqdori aniqlanib, Ca, K, Na, Al, Mg, Fe, P kabi elementlar yuqori miqdorda bo‘lib, ular tarkbidagi Pb; Cd; Hg va As kabi og‘ir metall ionlarining miqdori Xalqaro oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi gigiyenik normalaridan oshmaganligi hamda keltirilgan me‘yorlarga mos kelishi aniqlangan.

Carnica asalari propolisi tarkibida flavonoidlar miqdori YuSSX qurilmasida o‘rganilganda Lyuteolin (1.19 mg), dolchin kislotasi (18.88 mg), rutin (2.48 mg), apigenin (6.67 mg), katexin (0.3mg), kaempferol (2,57 mg) miqdorda borligi aniqlangan va *Carnica* asalari propolisi tarkibidagi faol flavonoidlarini chuqurroq o‘rganish maqsadida Mass-spektrometr LC MS 6420 Triple Quad (Agilent) dan foydalanilgan holda tahlil qilingan. Natijalar 100 g quruq moddaga nisbatan mg da ifodalangan. Moddalarning molekulyar massasi musbat ionizatsiya sharoitida o‘rganilganda ularning molekulyar ionlari $[M+H]^+$ ko‘rinishida m/z 286.24 lyuteolininga (a), m/z 610.5 rutinga (b), m/z 270.24 apigeninga (v) va m/z 286.24 kaempferolga (g) mos kelishi aniqlanib, amaliy olingan natijalar nazariy hisoblangan molekulyar massalarga mos kelishi aniqlangan. Mass-spektrlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. *Carnica* asalari propolisi tarkibidagi flavonoidlari Lyuteolin (a), Rutin (b), Apigenin (v) va Kaempferol (g) massalarini aniqlash uchun, asalari propolisi tayyorlangan eritma xromotografiyasi

Carnica asalari propolisi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar miqdori YuSSX usulida aniqlanganda B₂-riboflavin (9.41 mg/g), B₆ -piridoksin (1.18 mg/g) va C-askorbin kislotasi (20.68 mg/g) miqdorda borligi aniqlangan;

Carnica asalari propolisi tarkibidagi aminokislotalar miqdorini YuSSX usulida aniqlandi, natijalari 1-jadval keltirilgan.

1. jadval

Carnica asalari propolisi tarkibidagi aminokislotalar miqdori

N ^o	Aminokislota	Miqdori (mg/g)	N ^o	Aminokislota	Miqdori (mg/g)
1	Asparagin kislota	0.252744	11	Prolin	1.004854
2	Glutamin kislota	0.297289	12	Tirozin	1.226887
3	Serin	0.582589	13	Valin	0.598054
4	Glitsin	0.172879	14	Metionin	0.477111
5	Asparagin	0.34865	15	Gistidin	0.419455
6	Glutamin	2.75664	16	Izoleytsin	0.299409
7	Tsistein	1.019672	17	Leytsin	0.658733
8	Treonin	0.703812	18	Triptofan	0.261614
9	Arginin	0.543038	19	Fenilalanin	0.092638
10	Alanin	0.285026	20	Lizin	0.163126

Carnica asalari propolisining aminokislotalar tarkibi tahlili uning biologik faol moddalar bilan boy ekanligini ko'rsatadi. *Carnica* asalari propolisning turli erituvchilarda (etanol, kungaboqar moyi, suv hamda etanol-kungaboqar moyi aralashmasi) eruvchanligi o'rganildi. Tajriba xona haroratida (20-25 °C) va yuqori haroratda (60-70 °C) turli vaqt oralig'ida (10-50 daqiqa) olib borildi. Har bir erituvchida 2 mg/g miqdordagi propolisning erish darajasi baholandi. Olingan natijalar propolisning eng yaxshi eruvchanligi qaysi erituvchida kuzatilishini aniqlash imkonini beradi va 2- jadvalda keltirilgan

2-jadval

Carnica asalari propolisini har xil erituvchilarda erishi

Erituvchilar	Propolis mg/g	Xona harorati 20-25°C	60-70 °C				
			10 min	20 min	30 min	40 min	50 min
Etanolda 10 ml	2	Kam eridi	O'rtacha a eriydi	O'rtacha eriydi	O'rtacha eriydi	O'rtacha eriydi	O'rtacha eriydi
Kungaboqar moyida 10 ml	2	erimadi	erimadi	Kam eridi	Kam eridi	Kam eridi	Kameridi
Suvda 10ml	2	erimadi	erimadi	erimadi	erimadi	Erimadi	erimadi
Etanol va Kungaboqar moyida 4:1 nisbatda 10 ml	2	Kam eridi	Kam eridi	O'rtacha eridi	O'rtachadan kuproq eridi	Tuliq eridi	Tuliq eridi

Carnica asalari propolisini erishini kungaboqar moyida, etanol va suvda erishini har xil temperaturada erishini ko'rishini 2-rasmda keltirilgan.



Propolis kunga boqar moyida xona xaroratida Propolis etonolda xona xaroratida Propolis Suvda xona xaroratida Propolis etonolda 60 °C da 20 minut Propolis kunga boqar moyida 60 °C da 20 minut Propolis s suvda 60 °C da 20 minut Propolis kunga boqar moyi va etanolda 60 °C da 20 minut Etanolni o'chirgandan keyingi oxirgi maxsulot

2-rasm. *Carnica* asalari propolisini erishini kungaboqar moyida, etanol va suvda erishi hamda har xil temperaturada eruvchanligini ko'inishi

Ilk bor *Carnica* asalari propolisi kungaboqar moyi asosida moyli ekstrakti olingan va "PROPOLIS OIL" deb nomlangan. *Carnica* asalari propolisini moylar asosida moyli ekstraktini olish uchun propolisni maydalab, 96 % li etanol solib, suv hammomida, teskari sovutgich yordamida ekstraksiya qilingan va uning ustiga kungaboqar yog'i solib suv hammomida, teskari sovutgich yordamida ekstraksiya qilinib shu ekstraksiya davomida erituvchisi (etanol) haydab ajratib olingan va o'simlikning ekstrakti filtrlab olinib, sovutkichda 24 soatga qoldirilgan va yana filtrlab och qizil rangdagi *Carnica* asalari propolisi moyli ekstrakti olingan va "PROPOLIS OIL" deb nomlangan. "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyi - o'ziga xos hidli, och qizil rangli suyuqlik bo'lib 100 ml li flakonlarda ishlab chiqarildi va ko'inishi 3- rasmda keltirilgan.



3-rasm. *Carnica* asalari va uning propolisining moyli ekstrakti asosida tayyorlangan "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi ko'inishi.

"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi teri yarasi yallig'lanishga qarshi va antioksidant xususiyatlarga ega.

"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyi va kungaboqar moyining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini solishtirish natijasida, kislota soni va rang ko'rsatkichlaridagi farqlar ularning sifat va funksional xususiyatlarini aks ettiradi. Kungaboqar moyi past kislota soniga ega bo'lib (0,4488 mg KOH/g), bu uning yuqori tozalanganligi va yaxshi saqlanish barqarorligini ko'rsatadi, "PROPOLIS OIL" moyida esa kislota soni (1,1222 mg KOH/g) ega. Rang ko'rsatkichlari ham farqni tasdiqlab, kungaboqar moyi och sariq rangga ega bo'lsa, "PROPOLIS OIL" moyida rang intensivligi sezilarli darajada ortganligi 3-jadvalda keltirilgan.

3 - jadval

"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyini va kungaboqar moyini fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari


№	Moyning nomi	Kislota soni, mg KOH/g	Moy rangi, sar.b/qiz.b/ko'k.b
1	Kungaboqar moyi	0,4488	0.8/1.1/0.0
2	PROPOLIS OIL moyi	1,1222	10.1/3.6/0.6

"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyini tarkibidagi flavonoidlarni miqdorini aniqlashda YuSSX qurilmasida sifat va miqdoriy jihatdan tarkibidagi rutin, gall kislotasi, kvertsitin, apigenin va kaempferol miqdorlari aniqlanganligi 4-jadvalda keltirilgan.

PROPOLIS OIL oziq-ovqat qo'shilmasi moyi tarkibidagi flavanoidlarining miqdoriy ko'rsatkichlari.

Modda nomi	Gall kislota (mg/kg)	Rutin (mg/kg)	Kvertsitin (mg/kg)	Apigenin (mg/kg)	Kaempferol (mg/kg)
Propolis moyi	135,459	104,810	37,189	13,199	28,467

Gaz suyuqlik xromatografiya usuli orqali "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasini moyini (a) va kungaboqar moyini (b) yog' kislota tarkibi o'rganilgan va natijalar 4-rasmda xromatografiyalari keltirilgan.



4-rasm. "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyini (a) va kungaboqar moyini (b) gaz xromatografiyasi

Tadqiqot natijalarida "PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyida va kungaboqar moyida asosiy yog' kislotalarning miqdorida sezilarli o'zgarish kuzatilgan va 5-jadvalda keltirilgan.

"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi va kungaboqar moyining yog' kislota tarkibi

№	Yog' kislota	Kungaboqar moyi chiqish vaqti	Kungaboqar moyi (%)	Propolis Oil chiqish vaqti	Propolis Oil (%)	Ppropolis %
1	Miristin C _{14:0}	14.810	0,084	14.807	0,084	0
2	Palmitolein C _{16:1}	17.208	6,11	17.204	6,166	0
3	Stearin C _{18:0}	18.558	0,055	18.548	0,039	0.016
4	Olein C _{18:1} (Omega-9)	19.418	19,055	19.404	17,737	1.318
5	Linoleik kislota C _{18:2} (Omega-6)	20.770	69.204	20.761	70,668	1.533
6	Araxin kislota C _{20:0}	20.903	0,392	20.894	3,375	2.983
7	Alfa-linolen kislota (C _{18:3} , Omega-3)	22.060	0,093	22.055	0,154	0.061
8	Behen C _{22:0:0}	23.497	0,459	23.491	0,459	0
9	Lignoceric C _{24:0}	26.057	0,091	26.053	0,101	-0.01


"PROPOLIS OIL" oziq-ovqat qo'shilmasi moyi va kungaboqar moyini makro va mikro elementlar tarkibi XRF (rentgen-fluorescens) xromotogrammasida olingan natijalarda kungaboqar moyi va propolis ekstrakti bilan boyitilgan moy o'rtasida

element tarkibi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatgan. Ayniqsa, PROPOLIS OIL moyida ayrim makroelementlar Na, Mg, Al, Si, K, Ca va Fe nisbiy miqdori oshgani kuzatilgan. Og'ir metallar tarkibi esa juda past va xavfsiz: Pb, <0,10 mg/g, Cd, 0,012 mg/g, As, <0,10 mg/g, Hg, <0,001 mg/g bu esa biologik jihatdan foydali va iste'mol uchun xavfsiz hisoblanadi. Bundan tashqari, Cu, Zn, Mn, Sr va Ba kabi mikroelementlar faqat PROPOLIS OIL moyida aniqlangan. .

Carnica asalari propolisi bilan GKMAT ni 1:2 nisbatdagi suvda eruvchan kompozitsion birikmasini olish uchun adabiyotlarda oldindan ma'lum bo'lgan usulga asosan tozalik darajasi 80-82 % bo'lgan GKMAT dan foydalanilgan. *Carnica* asalari propolisi bilan GKMAT ni kompozitsion birikmasi olishda dastlab GKMAT 50% etanolda eritilib, uning ustiga propolis 96% li etanol eritmasida eritilib, tayyor eritmalar doimiy magnitli aralashtirish sharoitida xona haroratida ($25 \pm 2^\circ\text{C}$) 10-12 soat davomida aralashtirilgan. Keyinchalik, reaksiya yakunida etanol haydab olingan. Hosil bo'lgan suvli faza liofilizatsiya yo'li bilan quritilib, qizg'ish rangdagi, amorf tuzilishga ega bo'lgan, suvda yaxshi eruvchan kompozitsion birikmasi olingan.

Propolisi:GKMAT bilan kompozitsion tarkibidagi jami 59 ta makro va mikroelement aniqlangan bo'lib, ulardan Ca, K, Na, Al, Mg, Fe, P va suvda eruvchi vitaminlar B₂, B₆ va C mavjudligi hamda aminokislotalar eng yuqori miqdorda glutamin, tirozin, tsistein va prolin borligi aniqlangan.

Propolisdan tarkibida uchraydigan flavonoidlar Apigenin, Kaempferol bilan GKMAT ni 1:2, 1:4, 1:9 molekulyar nisbatlardagi supramolekulyar komplekslarini olishda GKMAT ni 50 % etanolda eritib, aralashtirib turgan holda mos ravishda apigenin va kaempferol alohida qo'shilgan, reaksiya aralashma 10-12 soat davomida xona haroratida aralashtirilgan. Etanol haydab olinib, suvli qism liofil usulda quritilgan. Olingan supramolekulyar kompleks birikmalar och sariq rangli, amorf kukun holatda. GKMAT kompleks birikmalari 0,1 % li suvli eritmaları gel hosil qilish xususiyatiga ega. Birinchi marotaba apigenin, kaempferollar bilan GKMAT tuzini supramolekulyar komplekslari olingan. Ularning umumiy olinishi 1- sxemada keltirilgan.



Bu erda: R= NH₄; n=2; 4; 9. R'= Apigenin, Kaempferol.

1-sxema. Apigenin va Kaempferol bilan GKMAT supramolekulyar komplekslarini olish


Apigenin va Kaempferolni GKMAT bilan olingan supromolekulyar komplekslarining UB spektrlari 250-252 nm to'liq uzunligida kuzatilgan. Olingan kompleks birikmalar och sariq rangli amorf kukun 0,1 % li suvli eritmasi gel xususiyatiga ega.

Izomolyar tekshiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, Apigenin va GKMAT o'rtasida hosil bo'lgan supramolekulyar kompleksning eng barqaror shakli 1:2 molyar nisbatda bo'lib, maksimal molyar ulush $X_{\max} = 0,36$ ni tashkil qiladi. Ushbu nisbatda Apigenin molekulalari GKMAT bilan optimal intermolekulyar o'zaro ta'sir hosil qilganligi

sababli barqaror supramolekulyar tizim yaratiladi, bu esa biofaollikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, 1:4 nisbatda maksimal molyar ulush $X_{\max} = 0,17$ va 1:9 nisbatda esa $X_{\max} = 0,12$ bo'lishi aniqlangan bu natijalar Apigenin va GKMAT ning supramolekulyar o'zaro ta'sirida optimal nisbatni aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. 5-rasmda keltirilgan.


Kaempferol va GKMAT o'rtasidagi eng barqaror supramolekulyar kompleks 1:2 molyar nisbatda hosil bo'lib, maksimal molyar ulush $X_{\max} = 0,28$ ni tashkil qiladi. 1:4 $X_{\max}$ mos ravishda 0,18 va 1:9 nisbatlarda $X_{\max}$ mos ravishda 0,09 bo'ldi, bu optimal intermolekulyar o'zaro ta'sir va biofaollikni oshirish imkonini ko'rsatadi.

Apigenin-GKMAT (a) va Kaempferol-GKMAT (b) komplekslarini Izomolyar seralar usulida antibat nisbatlarda (1:9 dan 9:1 gacha) olingan UB spektrlari grafigi Apigenin-GKMAT maksimal molyar ulush 1:2 nisbatda $X_{\max} = 0,36$ ga, 1:4 nisbatda $X_{\max} = 0,17$ ga va 1:9 nisbatda esa $X_{\max} = 0,12$ ga teng (a) va Kaempferol-GKMAT maksimal molyar ulush 1:2 nisbatda $X_{\max} = 0,28$ ga, 1:4 da esa $X_{\max} = 0,18$ ga va 1:9 nisbatda esa $X_{\max} = 0,09$ ga teng (b) 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Apigenin-GKMAT (a) va Kaempferol-GKMAT (b) komplekslarini Izomolyar seralar usulida antibat nisbatlarda (1:9 dan 9:1 gacha) olingan UB spektrlari

Apigenin bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini IQ va Mass spektrlarini aniqlash. Apigenin GKMAT bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida kompleksning infraqizil IQ spektrlari olinib, propolis-GKMAT kompleksining spektri bilan solishtirilgani 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Apigenin (a); Apigenin:GKMAT (b); Apigenin va Apigenin:GKMAT (d) 1:2 nisbatdagi komplekslarining IQ-spektri

IQ-spektr tahliliga ko'ra, apigenin-GKMAT kompleksida sezilarli spektral o'zgarishlar kuzatildi. Apigenin va apigenin-GKMAT li supramolekulyar komplekslarining ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval


Apigenin va Apigenin-GKMAT li supramolekulyar komplekslarining ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

t/r	Moddalar mol.og'irlik	T.suy C°	Rf*	IQ, sm ⁻¹	Unum %
1	Apigenin	160-162	0,65 (III) 0.84 (I)	3400-3200 -(OH), 2920-2850 -(C-H); 1660-1600 (C=O), 1450-1200 -(C-O va C-C),	92.4
2	Apigenin:GKMAT 1:2 (270)	165-168	0,60 (II) 0.82 (IV)	3410-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1497.41-1437.5-(CH ₂ -CH)	86,0

3	Apigenin:GKMAT 1:4 (3630)	163-164	0,58 (II) 0.79 (IV)	3410-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1497.41-1437.5-(CH ₂ -CH)	81.6
4	Apigenin:GKMAT 1:9 (7829.)	161-162	0,72(II) 0.48(IV)	3410-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1497.41-1437.5-(CH ₂ -CH)	78.4

* I. Etilatsetat, II.Etilatsetat- atseton 5:1, III. suv-atseton 9:1, IV. etanol-suv 8:2

Apigenin bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini Mass spektrlarini aniqlash 6-rasmda keltirilgan.




Sintez qilingan kompleks uchun massa spektrometrik ma'lumotlar olindi va ularning massa fragmentlari mos ravishda $[M-H] = 1372.96$ ($A = 270+$) $[M-H]^+ = 271$ gr/m, $GKMAT[M-OH]^+ - 823 + \text{Suv} = 1128$ gr/m, $[GKMAT+2A] - [M-H] = 1372.96$, $[GKMAT+2A-H_2O] [M-H] = 1647.51$, $[2GKMAT+A] [M-H] = 2058.87$, $[2GKMAT+2A+H_2O][MH] = 2470.73$, $[GKMAT+3A+H_2O] [M-H] = 2745.26$ ekanligidan Apigenin:GKMAT bilan 1: 2 nisbatda o'zaro kompleks birikma hosil qilishi aniqlandi.

6-rasm. Apigenin bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini Mass spektri.

Kaempferol bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini olishda 1,788 g (0,002 M) GKMAT dan olib, 25 ml distillangan suv va 25 ml atsetonni (1:1) aralashmasida 50-60 °C da magnit aralashtirgichda eritib, ustiga 0,302 g (0,001 M) Kaempferol solib 14-15 soat magnit aralashtirgichda aralashtirgan reaksiya aralashma Shotta voronkasida filtrlab olingach, atseton erituvchisi vakuumda haydab olinib suvli qismi leofil quritish qurilmasida quritib olingan. Olingan supramolekulyar kompleks birikma sariq rangli amorf kukun 0,1% li suvli eritmasi gel xususiyatiga ega. $T_{\text{suyuk}} = 165-170$ °C $\alpha_D^{25} = +20$ (dis.suv.etanol 1:1), $R_f = 0.62$ (VI) Unumi 89 %.

Kaempferol bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini IQ va Mass spektrlarini aniqlash. Kaempferol bilan GKMAT ni IQ spektri tahlil qilingan. Komplekslashuv natijasida spektrda yuz bergan o'zgarishlar quyida 7-rasm keltirilgan.



7-rasm. Kaempferolning IQ spektrlari (a); Kaempferol-GKMAT (b); kaempferol va kaempferol-GKMAT (d) komplekslari 1:2 nisbatda.

Kaempferol va kaempferol-GKMAT li supramolekulyar komplekslarining ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari 7-jadvalda keltirilgan.


7-jadval

Kaempferol va Kaempferol-GKMAT li supramolekulyar komplekslarining ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

t/r	Moddalar mol.og'	T.suy C ⁰	Rf*	IQ, sm ⁻¹	Unum%
1	Kaempferol (286)	160-162	0,67 (III) 0.80 (I)	3402.17-3322.73-(OH), 2966.05-2856.14-(C-H); 1653.94 -1605.20-(C=O),1453.04-1240.63-(C O-C-C),	90.4
2	Kaempferol: GKMAT 1:2 (1966.)	165-170	0,62 (II) 0.87 (IV)	3400-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1200- 1000 (C-O)	89,0
3	Kaempferol: GKMAT 1:4 (3646)	160-168	0,70 (II) 0.53(IV)	3400-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1200- 1000 (C-O)	79.8
4	Kaempferol: GKMAT 1:9 (7845)	166-168	0,64 (II) 0.46(IV)	3400-(OH), 1650-(C=O); 2930.14-(CH), 1200- 1000 (C-O)	72.6

* I. Etilatsetat, II.Etilatsetat- atseton 5:1, III. suv-atseton 9:1, IV. etanol-suv 8:2

Kaempferol bilan GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini Mass spektrlari quyida 8-rasmda keltirilgan



Sintez qilingan kompleks uchun massa spektrometrik ma'lumotlar olindi va ularning massa fragmentlari mos ravishda $[M-H]=1612.400$ ($M = 286+$) $[M-H]^+ = 287$ gr/m, GKMAT - 840 +Suv = 1145gr/m, $M = K:GKMAT(286+840), 1074,840(GKMAT)+286(K)+=1221$ gr/mol, $[GKMAT+2Kaem]=1527.70$ $[GKMAT+2kaem[MH]=1533.47$, $[2GKMAT+kaem+3H_2O][MH]=2135.70$, $M=[2GKMAT+2kaem+H][MH]=2443.97$, $[2GKMAT+3kaem++H_2O]-[M-H]=2749.57$ ekanligidan Kaempferol:GKMAT bilan 1: 2 nisbatda o'zaro kompleks birikma hosil qilishi aniqlandi.

8-rasm. Kaempferol:GKMAT ni 1:2 molekulyar nisbatlardagi kompleks birikmalarini Mass spektri.

Dastlabki moddalarni spektrlari bilan kompleks birikma kaemperol:GKMAT spektrlari o'zaro taqqoslaganda yuzaga kelgan qator 15-20 sm^{-1} oralig'idagi (siljishini)o'zgarishlarni kuzatish mumkin, bu "mehmon-mezbon" ko'rinishdagi supramolekulyar kompleks birikma hosil bo'lganidan dalolat beradi.

